

ARAB TILI AHAMIYATINING FIQH ILMI VA FAQIHLAR NAZDIDA TUTGAN O'RNI

Hafizov Najmiddin Abdurashidovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Fiqh ilmida arab tilining tutgan o'rni juda beqiyosdir. Aslida arab tili islom dinining asosiy tilidir. Shu nuqtai nazardan olinsa arab tili nafaqat fiqh ilmi balki, butun islomiy ilmlarning asosini tashkil qiladi. Arab tili xususiyatlari haqida gap ketar ekan shu o'rinda hozirda o'rganilayotgan buyuk olim Abu Hafs Nasafiy qalamiga mansub bo'lgan "Tilbatu-t-talaba" asarini ta'lif qilgan olim shayx Abdurrohman Al-Akning ushbu kitob kirishida arab tiliga bergan tariflarini keltirib o'tishni jioz deb todik.

Olim kitobga kirishdan oldin Allohga cheksiz hamdlar va Muhammad (s.a.v)ga salovatlar aytib o'tgandan so'ng arab tiliga shunday ta'rif berib boshlaydi: "Albatta arab tili Alloh taolo kalomi bo'lmish Qur'oni Karim tilidir. Arab tili dunyo tillarining eng buyugi, hurmatlisi, afzali, eng keng tarqalgani, eng chuquri, judayam daqiq, chiroyli, eng yoqimlisi va sermahsulidir. Arab tili shunday sifatarga ega ekan, qanday qilib u ojiz qoldiruvchi Qur'ni Karimning libosi bo'lmasin?!⁶²

Haqiqatdan ham Qur'oni Karim oyatlari ojiz qoldiruvchidir. Bunga misol qilib Payg'ambar (s.a.v) bilan kofirlar o'rtasidagi bir voqeani keltirish mumkin.

Vahiy tushishi davom etib islom ochiq da'vat etila boshlagandan keyin mushriklar: "Qur'on oyatlarini Muhammad to'qib chiqaryapti" deb ig'vo tarqatishadi. Shunda Alloh taolo haq payg'ambariga Hud surasi 13-oyatni va Baqara surasi 23-oyatni nozil qiladi. Ularda shunday deyiladi: "Yoki: "Uni (ya'ni, Qur'onni Muhammad) to'qib chiqargan", deydilarmi? Ayting: "U holda, agar rostgo'y bo'lsangizlar, Allohdan o'zga kuchingiz yetgan barcha butlarni (yordamga) chorlab shunga o'xshash o'ntagina "to'qilgan" sura keltiringiz!". Baqara surasida esa: "Va agar bandamizga tushirilgan narsamizga shakingiz bo'lsa, unga o'xshash bir sura keltiring va rost so'zlovchilardan bo'lsangiz, Allohdan o'zga guvohlaringizni chaqiring".⁶³

Yuqoridagi oyatlar nozil bo'lgandan keyin mushriklar arab tilidagi ilohiy oyatlar bilan bellashishga ojiz qoladilar.

Shu bilan bir qatorda arab tili payg'ambarlik tili hamdir. Eng oxirgi nabiylkni aynan shu til tasdiqlab kelgan. Hamda u islom dini, shariati va odobi tilidir. Albatta bu til shu dinning asosiy ilmi bo'ldan fiqh sohasining ham

⁶² Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy. Tilbatu-t-talaba. – Bayrut: Dor an-Nafois, 2015. – B. 6.

⁶³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiiri Hilol. – Toshkent: Hilol nashr, 2017. – J. I. – B. 26.

tilidir. Arab tili islom dini dunyoga keng yoyilishi natijasida shu din tili sifatida u ham kengaydi, o'sdi, gullab yashnadi. Arab tili o'zining juda ko'p so'zlari bilan go'yoki to'lib turgan dengiz, go'zal jumalari bilan to'liqinli ummon, o'zining takrorlanmas uslublari bilan baland bog'lar va istilohlari bilan esa jo'shqin buloqlar kabidir. Arab tili islom dini bilan birgalikda insonlarga ilm uchun berilgan mo'l-ko'l tuhfa, tunganmas xazina va doimo tirik tildir.

Majoziy ma'noda aytganda arab tili shunday bir tilki, kim agar bu til so'zlarini muhokama qilaman desa bu til dengiziga g'arq bo'lib ketadi. Kimdir agar uning ma'rifat uslublari bilishni xohlasa sehr jannatlari ichiga kirib ketadi. Yoki kim uning istilohiy ma'nolarini jamlashni xohlasa chanqog'ini to'liq qondiradi.

Har bir mo'min odam arab tili lazzatini his qila oladi. Arab tilining ochiq-oydinligi bilan din va shariatga ishonchni bog'lashdan ham shu tilning naqadar ajoyibligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda Qur'oni Karimga olib boradigan yo'l ham, hadis ilmiga olib boradigan yo'l ham, hamda fiqh ilmiga kirib borish ham faqat va faqat arab tili bilan bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan arab tili muhimligi sabablaridan kelib chiqqan holda oldingi va hozirgi ulamolarning barchasi to'xtamasdan va doimiy ravishda arab tili bilan shug'ullanib kelishgan va shug'ullanishmoqdalar. Islom shariatidagi asliy va shar'iy masalalarning barchasi arab tili bilan bog'langan. Shar'iy ilmlarning kaliti bo'lmish arab tili oldin qanday bo'lgan bo'lsa shunday holatda islom ma'rifatlarni to'g'ri anglashda va shariatni daqiq tushinib yetishda asosiy ko'priq sifatida davom etib kelmoqda. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, aynan arab tili ilmining rivojlanishida yurtimizdan ko'plab olimlar yetishib chiqqan. Buni hozirda arablarning o'zlari ham e'tirof etishadi. Misol tariqasida xorazmlik alloma Mahmud az-Zamaxshariy arab tili rivojiga juda katta hissa qo'shganliklarini tan olib arablar hali hamon u kishi haqida shunday deyishadilar: "Agar xorazmlik oqsoq Mahmud az-Zamaxshariy bo'lmaganida edi biz arablar tilimizni bilmasdan o'tardik".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi va boshqa arab tilining muhimligi jihatlaridan kelib chiqqan holda uni o'rganmasdan turib islom huquqshunosligi (fiqh) sohasini o'rganishlikning iloji yo'qligi tushuniladi. Arab tilining so'z boyligi juda katta bo'lganligidan bir so'z bir nechta ma'nolarni anglatib kelishi mumkin. Shu sababli ham fiqh sohasida fiqhiy so'zlarni alohida o'rganish ilmi vujudga kelgan.

Bu ilmni avvalgilardan bo'lib yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk olim Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy boshlab berganligini ko'rishimiz mumkin. Fiqhiy so'zlarni izohlash ilmida u kishi "Tilbatu-t-talaba"

asarini yozib qoldirganlar. Yuqorida aytib o'tilganidek hozirda ushbu kitob ustida ishlanishlar olib borilmoqda.